

PSIXOLOGIYANING BOSHQA SOHALARGA TA'SIRI VA UNI O'RGANISHDAGI KAMCHILIKLAR

Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Kosonsoy ixtisoslashgan maktabi psixologi Shaxobidinova Mohidil Shamsiddin qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda psixologiya fanini o'rganishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, psixologiyaning o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni va boshqa sohalarga ta'siri to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, tarbiya, tibbiyot, ong, o'quv reja, akdemiya, oliygoh, onkolog, tibbiy psixolog, psixodiagnostika, psixokorreksiya, ijodkorlik

Psixologiya fanlarining o'rganilmagan muhim yo'nalishlari

Psixologiya fanlari mundarijasini belgilashda bizningcha, bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Mamlakatimiz psixologiya fanida inson psixikasi ikki qatlamdan, ong va ongostidan iborat ekanligi hisobga olinmayapti. Dunyoda ko'zga ko'ringan olimlarning fikriga ko'ra, ong psixikaning 10 foizini, ongosti esa 90 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha psixolog olimlar psixikaning 10 foizini tashkil qiladigan ong bo'yicha dissertasiyalar himoya qilganlar. Psixologiya fakultetlarining o'quv rejalariga ham faqat ong bilan bog'liq mavzular kiritilgan. Chunki sobiq ittifoqning psixologiya fakultetlarida ham faqat ong bilan bog'liq mavzular o'qitilgan edi.

Psixologiya fanlarining bir qator muhim yo'nalishlarida juda kam ishlangan yoki umuman ishlanmagan. Jumladan, mamlakatimizda tibbiy psixologiya bo'yicha ilmiy ish qilgan mutaxassislar barmoq bilan sanarli. Toshkent tibbiyot akademiyasida mazkur yo'nalish bo'yicha magistratura ochilgan. Lekin yaqin vaqtlargacha tibbiyot muassasalarida tibbiy psixolog shtati ko'zda tutilmagani uchun magistraturani tugatganlar qaerga ishga kirishni bilmay sarson bo'lishdi.

Tibbiyot oliygothlarining o'quv rejasiga shaxs psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya degan vrachlar uchun zarur bo'lgan fanlar umuman kiritilmagan. Umumiy psixologiyani pedagogika fani bilan qo'shib o'qitish uchun faqat 56 soat vaqt ajratilgan. Bu esa umumiy psixologiya o'qish olti yil davom medinstitutlarda 28 soat o'qitilishini anglatadi. Ya'ni o'qish har kuni 6 soat davom etadi, deb hisoblasak, psixologiyaga olti yil davomida 5 kun ajratilishini bildiradi. To'g'ri, o'quv rejalarida tibbiy psixologiya va psixiatriya, singari fanlarni o'qitish ham ko'zda tutilgan. Lekin bu fanlar me'yoriy psixikani emas, psixikaning me'yordan og'ishlarini o'qitishni ko'zda tutadi.

Tibbiyot institutlarida insondagi me'yordan og'ishlarni o'rgatadigan fanlarni o'qitishdan avval me'yoriy holatlarni o'rganishga bag'ishlangan fanlar chuqur

o'qitiladi. Masalan patologik anatomiya fanidan avval normal anatomiya, patologik fiziologiya fanidan avval normal fiziologiyani o'qitish singari. Shunisi ham borki, me'yordagi holatlar va me'yordan og'ishlarni o'rgatuvchi fanlarga ajratiladigan soatlar hajmi deyarli bir xil.

Rivojlangan mamlakatlarda, Rossiya Federeratsiyasi tibbiy OTMLarida psixologiyaning eng zamonaviy yo'nalishlari: psixokardiologiya, psixodermatologiya, psixoimmunologiya, psixoonkologiya, psixoendokrinologiya singari qator fanlar o'qitilmoqda. Bu mamlakatlarda kardiolog mutaxassisligini egallayotgan talaba psixokardiologiyani, endokrinologiya mutaxassisligini egallayotgan talaba psixoendokrinologiyani, bo'lg'usi onkolog psixoonkologiyani egallashi shart hisoblanadi.

Qanchalik og'ir bo'lsa ham e'tirof etish zarurki, bu fanlardan talabalar uyoqda tursin, aksariyat olimlarimiz ham etarli bilimga ega emas. Buni qaerdan bilasiz, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Men mamlakatimizda keyingi ikki yilda chop etilgan jurnallarni o'rganib, tibbiyotning sanab o'tilgan yangi yo'nalishlari bo'yicha bironta maqola ham topa olmadim. Bu holat mazkur yo'nalishlarning mamlakatimizda qanday ahvolda ekanidan dalolat beradi. Tibbiy psixologiya va uning yo'nalishlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq qilish bemorlarning davolanishi va jamiyat salomatligini yaxshilashda juda muhim rol o'ynagan bo'lar edi.

Psixologiya fanining o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni

Universitetlarning o'quv rejalariga o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan pedagogik psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya singari fanlar kiritilmagan. Ayni paytda psixologiyaning o'qituvchilar uchun mutlaqo zarur bo'lgan bu sohalari bo'yicha etarli bilim olmagan bitiruvchilarning 90 foizdan ortiqrog'i maktablarga o'qituvchilik qilish uchun bormoqda.

O'qituvchining asosiy vazifalari tushuntirish, uqtirish va shu usullar yordamida o'quvchilarga bilim berish va tarbiyalash. Ta'lim jarayoni qisman, tarbiya jarayoni esa, asosan, ongostiga ta'sir o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ong ostiga ta'sir qilmay ham ta'lim va tarbiya tadbirlarini o'tkazish mumkin. Lekin bunda tadbirlarning samaradorligi juda past bo'ladi.

Tarbiya jarayonida uqtirishning muhimligi shundaki, o'quvchilarda uning yordamida ijobiy sifatlarning zarurligiga ishonch hosil qilish orqali bu sifatlarning ongostiga singdiriladi. Bunga faqat pand-nasihat qilish yo'li bilan erishib bo'lmaydi.

Psixologiyaning ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'rni

Hozir ta'lim tizimimizda o'quvchilardagi ijodkorlik xususiyatini rivojlantirishga alohida talablar qo'yilmoqda. Mamlakatimizda ijod maktablari, prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlardan biri ham ijodkorlikni rivojlantirishdir. Shu talab va maqsadga mos ravishda psixologiya va

pedagogika fanlarimizda ijodkorlikni rivojlantirish uslubiyati, texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak edi. Lekin hozircha psixolog va pedagoglarimizning faoliyatlarida bu masalani tezroq va atroflicha tadqiq etishga intilish sezilmayapti.

Ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon psixologiya fanida mavjud xulosalarga ko'z yugurtirsak, avvalo, ijodkorlik yana o'sha ongostida shakllanishi va rivojlanishi ma'lum bo'ladi. Ijod maktablarimizda ishlayotgan o'qituvchi va murabbiylarda esa ongostining tuzilmasi va xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor berilmayapti. Bizning fikrimizcha, bunday holat bu vazifani bajara oladigan psixologlarning kamligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Ijodkorlikning doimiy yo'ldoshi bo'lgan bir hodisa bor. Bu ilhom degan hodisadir. Agar o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda ilhom uyg'otish muammosini hal qila olsak, oldimizga qo'yilgan maqsadning yarmiga etgan bo'lar edik. Bu vazifani bajarish uchun ham ongostiga murojaat qilishimiz va u bilan ishlashimiz kerak bo'ladi.